

Italiya elchisi Samarqand arxeologiya instituti faoliyati bilan tanishdi

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi Samarqand arxeologiya institutida Italiya Respublikasining O'zbekistondagi Favquloddagi va muxtor elchisi Agostino Pinna (Agostino Pinna) bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Samarqand arxeologiya instituti va Italiyaning Bolonya hamda Neapol universitetlari bilan birga tashkil etilgan qo'shma arxeologik ekspeditsyalarning faoliyati, ularning kelgusi istiqbollari to'g'risida fikr almashildi. Elchi qo'shma ekspeditsiyalarning ilmiy natijalarini e'tirof etib, ushbu tadqiqotlar Italiya tomonidan kelgusida ham qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Uchrashuv so'ngida elchi Samarqand arxeologiya instituti faoliyati, olib boriladigan ilmiy ishlar bilan ham tanishdi.



